

## **OGAHIY TARIXIY ASARLARI HAQIDA OLIMLARNING ILMUY IZLANISHLARI (Amirxanyants misolida)**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3- kurs Dariy-ingliz guruhi  
talabasi **Yahyoxonova Irodaxon**  
Tel nomer: +998 (91) 508-78-48  
Email:  
[yaxyoxonovairoaxon@gmail.com](mailto:yaxyoxonovairoaxon@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ogahiy tarixnavis sifatida o'z davri haqida yetarlicha tarixiy asarlar yozgan bo'lib bugun olimning tarixiy asarlari jahon sharqshunoslari tomonidan keng o'r ganilmoqda. Biz shu asarlari haqida Avstryalik olim Amirxanyantsning fikrlari va Ogahiy shaxsiga nisbati haqida maqolada yortilgan bo'lib. Nina uchun Ogahiy asarlari bu qadar tarixiy asarlari haqida ma'lumotlar ushbu maqolada keltirib o'tgan.

**Kalit so'zlar:** Munis va Ogahiy, "Firdavs ul-iqbol", Amirxanyants, Xiva taeixi, tarixnavis.

Ogahiy tarixnavis olim sifatida O'rta Osiyo, ayniqsa Xorazm tarixini o'r ganishda qimmatli qator tarixiy asarlar yaratdi. Shoir sifatida mukammal devon tuzdi.

Biz Ogahiydi nafaqat tarixnaviz balki moxir tarjimon sifatida kashf etishimiz uning yangi qirralarini ochishga imkon beradi. Ogahiy o'z devonining so'z boshisida ko'rsatib o'tishicha: "Ravzat us-safo"ning 2-daftarning 2-qismini, "Nodirnoma", "Zafarnoma", "Zubdat ul-hikoyat", "Miftox ut-tolibin", "Axloqi Muhsiniy", Vosifiyning "Navodir ul-voqoiy", "Nasihatnomai Kaykovus", Jomiyning "Salomon va Absol", Sa'diyning "Guliston, Jomiyning "Bahoriston", Nosiriyning "Ravzat us-safayi Nosiriy", "Tazkirai Muqimxoniy", "Taboqati Akbarshohiy", Nizomiyning "Haft paykar", Xisraviyning "Xasht behisht",

Jomiyning “Yusuf va Zulayho”, Hiloliyning “Shoh va gado” asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

XIX asr xorazmlik tarixnavis olimlar Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” nomli asariga pastor Avstryalik Amirxanyantsning yozgan taqrizi ham mavjud. Amirxanyants bu asar juda yaxshi tanishib chiqib, asarning muallifi va ilmiy qiymati haqida 18 betdan iborat o‘z mulohazalarini yozib beradi.<sup>1</sup> U asar asar haqida bunday deb yozadi: “ Sharqshunoslarga ma’lumdurki, ba’zi qo‘lyozmalargina uning ustida ilmiy tekshirish ishlari olib borilgan olimning ozginagina talabini, ya’ni qaysi vaqtida, qayerda va kim tomonidan yozilgan va qaysi ahvolda yzilgan degan talabiga javob bera oladi. “Firdavs ul-iqbol” esa yordanchi ma’lumot beruvchi kitoblarga muhtoj qilmay, bunday savollarning hammasiga javob beradi”<sup>2</sup>.

Haqiqatda ham Munis va Ogahiyning o‘z zamonasining iqtidorli shoir va tarixchi ekanini tushungan Amirxanyants ular haqida quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan:

“Firdavs ul-iqbol” ning muallifi o‘z diyorida birdan-bir atoqli shoir, o‘rnak bo‘la oladigan yozuvchi va klassik tarixchilar . Shayx Sulaymon o‘zining chig‘atoy tili nomli lug‘atining<sup>3</sup> ko‘p yerida Munisdan va uning jiyani Ogahiydan ko‘plab misollar keltiradi.

O‘z amakisi Munisning ishini davom ettiruvchi va uning noyob uslubini vorisi tarixchi Ogahiy esa haqiqatda ham o‘z ustozi Munis tomonidan boshlangan yuksak tarixiy binoni ajoyib ravishda davom ettirgan va oxiriga yetqazgan uning loyiq shogirdidir.<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institute. Sankt-Peterburg bo‘limi. Arxiv r.sh.op.2№ 34; Записи пастора Авр. Амирханнайнца об истории Хивы. «Заметка профю И.И.Велевского. Ср.Прото филю отд. 1980 г. § 14.(6.11.90), § 24 (20ю11.90)

<sup>2</sup> O‘sha asar: 2-bet

<sup>3</sup> Shayx Sulaymon. Lug‘ati chig‘atoyi.O‘zR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute litografiya fondi. INV № 213

<sup>4</sup> Записи пастора Авр. Амирханнайнца Arxiv r.sh.op.2№ 34.

Munis va Ogahiy bu asarni Xorazm va unga qo'shni xalqlar tarixini o'rganishda kata ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib Amirxanyants bunday deb yozadi: Dunyodagi hamma sharqshunoslar Abulg'oziydan so'ng Xorazmda va uning qo'shni mamlakatlarda qanday voqealar ro'y berayotganini bilishni zo'r ishtyoq bilan xohladilar. Hozir biz bu mashhur tarixchi Munis va Ogahiyning bu asari tufayli Abulg'oziyning o'g'li Anushaxon hukumronlik qilgan vaqtidagi voqaealar bilan tanishish imkoniyatiga egamiz. Tarixchi bizga Abulg'oziyxondan Chingiz avlodini oxirgi vakili Abulg'ozi ungacha Xivada hukumonlik qilgan xonlarning davrida bo'lган voqealarni birma-bir bayon etadi".

Amirxanyants o'z taqrizida bu asarning ilmiy ahamiyati naqadar yuqori ekanligini ko'rsatuvchi quyidagi mulohazalarini keltiradi. U "Firdavs ul-iqbol" nomli tarixiy asarning afzalligi shundadir deb yozadi:

- Abulg'oziy Bahodirning tarixiy <sup>5</sup>asarlarini davom ettiradi;
- Bu mashxur tarixchi Abulg'oziyxonning o'z asarida maqsadga muvofiq kelmagani uchun tushirib qoldirilgan qismlarni to'ldiradi. Munis va Ogahiyning asarida biz Abulg'oziyxon davridan ilgarigi davr bo'yicha ham, u xonlik qilgan davrda ham bo'lмаган, lekin Abulg'oziyxon tomonidan keltirilmagan ma'lumotlarni uchratamiz;
- O'sha yerda ( Xorazmda) kata ishlarda bo'lган kishilarning biografiyasi haqida ma'lumot beradi;
- Qumli sahrolar, Orol dengizi, Amudaryoning dastlabki oqimi va Xojimxon xonlik qilgan vaqtida uning o'zgarilishi kabi qiziq geografik ma'lumoitlarini beradi. Shuningdek ba'zi Shoxobod arig'I, Bandi sulton kabi kanallar haqida ham ma'lumotlar berilgan;
- Asardagi ma'lumotlar dalillar asosida yozilgan bo'lib, aniq xronologik tartibda keltirilgan;

---

<sup>5</sup> Muallif Abulg'oziyxonning "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" nomli asarlarini ko'zda tutadi.



- Bu asarni yozishda og'izaki va yozma ma'lumotlarni diqqat bilan sinchiklab to'plagan;
- Asar sof klassik, ilmiy tilde yozilgan;
- Kitob juda yaxshi yozilgan bo'lib, voqealar bir-biri bilan yaxshi bog'langan<sup>6</sup>.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mukinki Ogahiy Xiva xonligi tarixiga atab yozgan besh asaridan "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix" va "Gulshani Davlat" nomli asarlari qsiqartirilgan holda arab tilida nashr etilgan. Ogahiyning tarixnavis sifatida shakllanishida Munisning hissasi va xizmati kattaligini biz u yizgan asarlarida ko'rishimiz mumkin. Munis, Ogahiy asarlarining tarixiy, ilmiy va unda keltrilgan ma'lumotlarning ko'pligi va aniqligi jihatidan qanchalik ahamiyatga ega bo'lmasin, xozirgacha qo'lyozma sifatida foydalanib kelinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institute. Sankt-Peterburg bo'limi. Arxiv r.sh.op.2№ 34; Записи пастора Авр. Амирханнаянца об истории Хивы. «Заметка профю И.И.Велевского. Ср.Протю филю отд. 1980 г. § 14.(6.11.90), § 24 (20ю11.90)

2.O'sha asar: 2-bet

3.Shayx Sulaymon. Lug'ati chig'atoyi.O'zR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute litografiya fondi. INV № 213

4.Записи пастора Авр. Амирханнаянца Arxiv r.sh.op.2№ 34.

5.Muallif Abulg'oziyxonning " Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" nomli asarlarini ko'zda tutadi.

6.Записи пастора Авр. Амирханнаянца Arxiv r.sh.op.2№ 34, 14-16 s.

<sup>6</sup> Записи пастора Авр. Амирханнаянца Arxiv r.sh.op.2№ 34, 14-16 s.